

## **ESSE YOZISHNI O‘RGATISHGA DOIR YONDASHUVLAR**

**Dilnura AVEZOVA,**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika  
universiteti “O‘zbek tili va uni  
o‘qitish metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878045>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarga esse yozishni o‘rgatishga oid olib borilgan tadqiqot ishlari mazmuni va esse qismlarini shakllantirishga doir yondashuvlar hamda ta’lim texnologiyalari haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** og‘zaki va yozma nutq, kreativlik, ijodiylik, leksik birliklar, iboralar, grammatik me‘yor, nutqiy ko‘nikmalar, muammoli ta’lim texnologiyalari, munozarali ta’lim texnologiyalari.*

O‘quvchilarning yozma nutq malakalarini shakllantirish masalasi ona tili ta’limining eng asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Ona tili ta’limida yozma nutq malakalarini shakllantirish jarayoni turli uslubdagi matnlarni yaratish bilan bog‘liq holda olib borilib, ular orasida aynan esse yozish, o‘quvchilarni ushbu jarayonga tayyorlash, yozilgan esselarni muayyan mezon asosida baholash masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Til ta’limi metodikasida esse yozishni o‘rgatishga doir yondashuv, ta’lim texnologiyalari va usullari talaygina bo‘lib, ular tahlili esse yozish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasiga oid ta’lim mazmuni va usullarini ishlab chiqishda asqatadi deb hisoblaymiz.

Xorijiy manbalarda esse yozish malakalarini samarali shakllantirishda til ta’limida qo‘llanadigan assotsiativ, matn tuzilishi va uni yaratishga oid topshiriqlar bilan bir vaqtda kreativ fikrlash va tasavvurni shakllantirish bilan bog‘liq topshiriqlardan foydalanishning samarasi yuqori ekani ta’kidlanadi[1]. Agar essening yozma nutqni shakllantirishdan tashqari o‘quvchining tafakkuriga ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga oladigan bo‘lsak, haqiqatan ham faqatgina yozma nutqqa oid bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali bunga erishish mushkul.

Asosan, essega ijodiy ish sifatida ta’rif berilganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa uni yozishga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratish zarurligini bildiradi. Ayni shu masalada Y.V.Buzelskayaning tadqiqot ishida quyidagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etilgan bo‘lib, ular o‘quvchining mantiqiy tafakkuri, sabab-natija, dalillar keltirish, o‘z fikrini asoslash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishda ahamiyatli hisoblanadi:

- muammoli ta’lim texnologiyalari (asosiy maqsad – mavjud muammoni hal etish, fikrlarni rivojlantirish, yangi g‘oyalar ustida ishlash);
- munozarali ta’lim texnologiyalari (asosiy maqsad – kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish);
- “Case study” texnologiyasi (asosiy maqsad – o‘quvchilarni muayyan vaziyatlarda o‘zini sinab ko‘rish, amaliy natijalar haqida o‘ylab ko‘rish);
- ta’limiy o‘yinlar (asosiy maqsad – o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish)[2].

Ushbu usullar orqali tashkillashtirilgan darslar o‘quvchilarning fikrlar oqimini boshqarishni, asosli fikr ifodalash, taqqoslash, xulosa chiqarish, vaziyatga mos atama va jumladan foydalanishdek muhim bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ammo, bizningcha, sanab o‘tilgan usullardan foydalanishni, albatta, fikr va mulohazalarni yozma ifodalashga oid topshiriqlar bilan yakunlash tavsiya etiladi. Bu ayni maqsad sari harakatlanishda samarali natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Chunki fikrni og‘zaki yoki yozma nutq orqali ifodalash tanlovi berilganda o‘quvchilar asosan og‘zaki nutqni afzal ko‘radilar. Buning sababi insonlar o‘ylagan fikrlarini yozma nutq orqali ifodalashda bir qancha psixologik va psixolingvistik muammolarga duch keladilar. Ushbu holat ham tadqiqotlar orqali izchil o‘rganilgan bo‘lib, tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, o‘z ona tilida fikrlarini yozib berish so‘ralgan o‘quvchilar birinchi navbatda, fikr va g‘oyalarning yetishmasligidan qiynalsalar, ikkinchi tomondan esa, mavjud fikrlarini yozma nutq orqali yetkazib bera olmaslikdan xavotirga tushadilar[3].

Esse yozish nafaqat kreativlik, ijodiylik hamda mulohazakorlik ko‘nikmalarini, bundan tashqari, izlanuvchanlik, tadqiqotchilik bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib [4], esse yozish jarayonida o‘quvchi mavzuga oid ma’lumotlarni o‘rganadi, ularni saralaydi, tahlil qiladi va unga nisbatan o‘z munosabatini ifodalaydi.

Xorijiy metodistlarning esse mazmunining berilgan mavzu bilan muvofiqligiga erishish borasida o‘ziga xos yondashuvlari mavjud bo‘lib, bunda berilgan mavzuga oid kalit so‘zlarni aniqlash, ma’lumotlarni o‘rganish, ularni saralash, kichik xatboshilarni ishlab chiqish, matn tezisini tayyorlash, kichik sarlavhalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hosil qilishni o‘rgatishga oid topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi [5]. Bunday mazmundagi topshiriqlar sarlavha va mavzuning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga, o‘quvchini qo‘yilgan asosiy maqsaddan uzoqlashmaslikka, esse hajmini sun’iy ravishda oshirib yuborishga yo‘l qo‘ymaslikka o‘rgatadi.

D. Y. Teleshev o‘zining esse orqali o‘quvchilar yozma nutqini sinovdan o‘tkazish va baholashga oid ilmiy tadqiqoti[6]da esse orqali o‘quvchilar yozma nutqini sinovdan o‘tkazishning ilmiy-metodik asoslarini, uning baholashga ta’sirini

# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

o‘rgangan, baholash usullarini ishlab chiqqan va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etgan. Unga ko‘ra, essening har bir qismi quyidagi mezon asosida baholanishi tavsiya etiladi:

<b>Matn tuzilishiga oid komponentlar</b>	<b>Baholash mezonlari</b>
Kirish	O‘ziga xos originallik, muammoga yo‘nalganlik.
Asosiy qism	Mavzuga muvofiqlik, mantiqiylik, dalillar bilan boyitilganlik.
Xulosa	Argumentlarning keltirilgani, shaxsiy munosabatning ifodalangani.
Tilga oid vositalar	Mavzuga oid leksik birliklar, iboralar, grammatik me‘yor, qismlar o‘rtasidagi bog‘liqlik.
G‘oyaning yaxlitligi	Umumiy g‘oya, kalit so‘zlar, mavzuga muvofiqlik.
Madaniy norma	Tolerantlik, insonparvarlik, etika.

Ko‘rib turganimizdek, mazkur baholash mezonida asosan essening mazmuniga urg‘u berilgan bo‘lib, uning shakliga alohida e‘tibor qaratilmagan. Esse yozishda esa xatboshilarni ajratish, oddiy qoidalardan tortib to hikmatli so‘z yoki sitatalarni matn tarkibiga kiritishga oid punktuatsion hamda imloga oid qoidalarni bilish ham zarur hisoblanib, ushbu ko‘nikma va bilimlarsiz esseni talab darajasida yozish mumkin emas.

Axborotlashgan dunyo talablariga ko‘ra, internet saytlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar muayyan mavzu yoki hodisaga nisbatan fikr bildirishda esse janridan foydalanishni ma‘qul ko‘radilar. Mazkur jarayonda essegga nisbatan alohida mezonlar bo‘lib, bunda muallifdan auditoriyani hisobga olish, ular tomonidan bildirilgan fikrlarga nisbatan munosabatni ifodalashga tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan mutaxassislar internet saytlari uchun esse yozishga o‘rgatish bilan bog‘liq interfaol topshiriqlar tipologiyasini ishlab chiqib, ularning samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini olib borganlar[7]. Ushbu tadqiqotda ham esse yozish 3 qism(tayyorgarlik, yozish, taqdim etish)dan iborat kognitiv jarayon sifatida tilga olinib, uning o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘lishi ta’kidlangan:

– analiz (matnni dekodlash va qayta ishlash) va sintez qilish (matnni yaratish) ko‘nikmasini shakllantirish. Bunda muallif xayolan esse taqdim etilayotgan

auditoriya bilan muloqotga kirishishi, ularning munosabatini oldindan his qilishi va o‘z fikrlari orqali ularga javob qaytarishi muhim sanaladi;

– taqdim etish bosqichida barcha o‘quvchilarning fikrlari o‘rganib chiqiladi, qanday izohlarni hisobga olish mumkinligi, ular asosida chiqarilgan xulosalarni qayd etish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

M.L.Vashayeva bog‘lanishli nutqni shakllantirish orqali esse yozishga o‘rgatish xususida fikr bildirar ekan, bunda ushbu janrda yozilgan namunalar tahlilini olib borish, uning shakl va mazmuniga qo‘yiladigan talablarni yaxshi o‘rganish, har bir talabga mos keluvchi mashq va topshiriqlarni ishlab chiqish va ularni o‘quv qo‘llanma, darsliklar mazmuniga singdirishning metodik jihatlari haqida so‘z yuritadi[8]. Ya’ni o‘quvchi fokusini essegga qo‘yilgan talablar asosida shakllantirilgan alohida mashq va topshiriqlarga qaratish yozma ish sifatining yaxshilanishiga olib kelishini tajriba-sinov ishlari orqali isbotlaydi.

O‘zbek metodistlaridan K.Mavlonova ham o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini shakllantirish metodikasi to‘g‘risida fikr bildirar ekanlar, bunda o‘quvchiga matn sarlavhasini aytish va shu asosda matn yaratish topshirig‘ini berish orqali kerakli natijani qo‘lga kiritib bo‘lmasligini ta’kidlaydi[9]. Bunday holatda o‘quvchiga yo‘naltiruvchi savollar, matn strukturasi va mazmunini belgilab beruvchi qo‘shimcha vositalar (sxemalar, kalit so‘zlar, alohida topshiriqlar)dan foydalanishga oid yo‘riqnomani berish tavsiya etiladi. Bu esa yozma ish turiga qo‘yiladigan talablarning imkon qadar to‘la bajarilishiga olib keladi.

Xorijiy metodistlardan biri N.V.Smirnova o‘z tadqiqoti orqali bilingual ta’lim sharoitlarida yozma nutq(esse misolida)ni shakllantirish amaliyoti xususida tadqiqot olib borgan. Uning fikriga ko‘ra, yozma nutqni shakllantirishdagi samaradorlikka quyidagi maxsus ko‘nikmalarni o‘zaro bir vaqtda shakllantirish orqali erishish mumkin:

- yozma matnni makrorejalashtirish ko‘nikmasi, ya’ni mavzu va janr haqida o‘ylash, matn taqdim etiladigan auditoriyani hisobga olish;
- yozish jarayonini tashkillashtirish, ya’ni birlamchi va ikkilamchi g‘oya va fikrlarni matnga kiritish (sabab-natija, taqqoslash, argumentlar keltirish, tavsiflash, tushuntirish);
- yozma matnni mikrorejalashtirish, ya’ni matnning har bir kichik qismi (kirish, asosiy qism, xulosa) bilan alohida ishlash;
- g‘oya va fikrlarni translyatsiya qila olish, ya’ni o‘z fikrlarini yozma tarzda ifodalay olish, ular bilan bo‘lisha olish, matn mazmuni ustida ishlay olish;
- matnni tahrir qila olish, ya’ni mazmun (imloviy, ishoraviy, uslubiy) hamda texnik jihatdan qayta tahrirlash [10].

Esse yozishga o‘rgatishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, ijodiy ishning ushbu turi insonni ruhiy tushkunlik va stressdan halos qilishda ham foydali hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar<sup>1</sup>ga ko‘ra, esse yozish orqali inson mavjud muammoni chuqur o‘ylab ko‘rishi, o‘zini qiynayotgan savollarga tizimli ravishda javob qidirishi, shu asosda kerakli qarorlarni qabul qilishi mumkin ekan.

Yuqorida o‘rganilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, esse yozish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan darslarda nutqiy ko‘nikmalar hamda lingvistik bilimlarning o‘zaro uyg‘unligini hosil qilishga e’tiborni qaratish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, kreativ fikrlash, tanqidiy munosabat hamda dunyoqarashning kengligini rivojlantirishga oid topshiriqlardan foydalanish ham esse mazmunining boyligini, unga qo‘yilgan talablarga moslik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бузальская Е.В. Контроль сформированности творческих умений письменной речи // XXXVIII Международная филологическая конференция Вып.21. РКИ и методика его преподавания. 16 - 20 марта 2009 г., Санкт-Петербург/ отв. ред. Н.А.Любимова. - СПб.: Факультет филологии и искусств, 2009. С. 158 -164.
2. Бузальская Е.В. Формирования коммуникативной компетенции иностранных студентов творческих специальностей при обучении письменной речи в жанре эссе. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Санкт-Петербург – 2010.
3. M. Bakhievva, K. Azimova. Difficulties of writing an essay in EFL.
4. What makes a perfect essay and why is it so important? euroeducation.net.
5. Sergeyeva, E., Topical identity as a methodological problem // English Language Teaching in Russia: Building a Professional Community. 10th NATE Russia Conference. Tambov, May 31 - June 4, 2004. Proceedings. – Tambov: Tambov University Press, 2004. - P. 48.
6. Д.Ю.Телешев. Обеспечение надежности тестирования письменной речи учащихся в формате эссе (английский язык). Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. Тамбов– 2008. 26с.
7. И. Н. Трушкова. Обучение письменному выражению мыслей студентов старших курсов языковых вузов с помощью ресерсов интернета. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. Москва – 2010. 24 с.
8. Е. В. Бузальская. Типология русского эссе (лингвокогнитивный аспект). Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора филологических наук. Санкт-Петербург – 2017. 52 с.
9. K. Mavlonova. Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent - 2023.
10. Н. В. Смирнова. Обучение иноязычной письменной речи как социальной практике в условиях билингвального образования (социальноэкономические специальности). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Санкт-Петербург – 2018. 23 с.
11. Avezova, D. Esse – O‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi vosita. *lteachin anguage*, 143.

# "TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

12. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
13. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
14. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
15. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. [https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).
16. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
17. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).